
TUMAN HOKIMI KICHIK SAONAT ZONASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR BILAN TANISHDI

Rishton tumani hokimi Bahodir Xoliqov kecha Navbahor mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan "kichik sanoat zonasi"dagi ishlar bilan tanishdi. So'nggi paytlarda tumanimiz aholisini biznesga jalb qilish va ijtimoiy himoya qilishda yangi "o'sish nuqtalari"ni aniqlash hamda drayver sohalarda oilaviy tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish loyixalarini amalga oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Navbahor" MFY hududidagi kichik sanoat zonasida tashkil etilgan sanoat korxonalarini faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bugungi kunda yuzdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda.

2023-11-22 08:27:42